Ishlab chiqarish muhiti omillarining zararliligi va xavfliligi, mehnat jarayonining og‘irligi va tig‘izligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha mehnat sharoitlarining gigiyenik tasnifi
(0069-24-son SanQvaN)ga

12-ILOVA

Smena davomida turli mikroiqlim ta’sirida bo‘ladigan xodimlar uchun mikroiqlim ko‘rsatkichi bo‘yicha mehnat sharoitini baholash

1. Smena davomida turli mikroiqlim ta’sirida bo‘ladigan xodimlar uchun mikroiqlim ko‘rsatkichi bo‘yicha mehnat sharoitini baholashda ish smenasi davomida xodimning isituvchi va sovituvchi mikroiqlim ta’sirida bo‘lishi foizi xronometraj asosida aniqlanishi lozim.

2. Isituvchi va sovituvchi mikroiqlim ko‘rsatkichlari bo‘yicha mehnat sharoitlari sinflari mazkur sanitariya qoidalarining talablariga ko‘ra aniqlanishi hamda zararlilik darajasining o‘rtacha miqdori hisoblanishi zarur.

Bunda ushbu mikroiqlim sharoitlarda xodimning ish smenasi davomida band bo‘lishi foizini quyidagi koeffitsientlarga ko‘paytirish orqali zararlilik darajasi aniqlanadi:

a) mehnat sharoitining 3.1 sinfi uchun -1;

b) mehnat sharoitining 3.2 sinfi uchun - 2;

v) mehnat sharoitining 3.3 sinfi uchun - 3;

g) mehnat sharoitining 3.4 sinfi uchun - 4;

d) mehnat sharoitining 4 sinfi uchun - 5.

3. Xodimlar organizmi turli mikroiqlim ta’sirida bo‘lgani uchun zararlilik darajasi kattalashish tomonga yo‘naltirilishi shart.